

HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILINI O'QITISHDA O'QUV TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH

U.Abdurasulova,

Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti dotsenti, PhD

Annotatsiya. Mazkur maqolada uzluksiz ta'lim tizimida faoliyat samaradorligini oshirish, ta'lim mazmuni va shaklini sifat jihatdan yuqori pog'onalariga ko'tarish maqsadida yangi texnologiyalar, o'quv topshiriqlardan foydalanish va buning ta'lim sifati va samaradorligiga ijobiy ta'sir o'tkazishi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: o'zbek adabiy tili, til va ma'naviyat, uzluksiz ta'lim, yangi texnologiyalar, zamonaviy metodlar, o'quv topshiriqlar, ijodkorlik qobiliyati, grafik organayzer

USING LEARNING ASSIGNMENTS IN TEACHING THE CURRENT UZBEKISTAN LITERARY LANGUAGE

Annotation. In this article, the use of new technologies and educational tasks in order to increase the efficiency of activities in the continuous education system, to raise the content and form of education to higher levels of quality, and the positive impact of this on the quality and efficiency of education. opinion about is conducted.

Keywords: Uzbek literary language, language and spirituality, continuous education, new technologies, modern methods, educational tasks, creativity, graphic organizer

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ УЧЕБНЫХ ЗАДАНИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ СОВРЕМЕННОГО УЗБЕКИСТАНСКОГО ЛИТЕРАТУРНОГО ЯЗЫКА

Аннотация. В статье рассматривается использование новых технологий, учебных заданий в системе непрерывного образования с целью повышения эффективности деятельности, повышения качества содержания и формы образования, а также их положительное влияние на качество и эффективность образования.

Ключевые слова: узбекский литературный язык, язык и духовность, непрерывное образование, новые технологии, современные методы, учебные задания, творческие способности, графический органайзер

KIRISH


Mamlakatimiz miqyosida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar davrida til va ma'naviyat davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan masala bo'lib kelmoqda. Dunyo mamlakatlari bilan global sohalarda o'zaro aloqalar o'rnatilayotgan bugungi kunda har bir millatning mohiyatini o'zida aks ettiradigan

til hodisalarini mukammal o'rganish shu xalqning ma'naviy qadriyatlari bilan bog'liq bilimlarni oshirishda muhim omildir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning ma'naviy-ma'rifiy masalalarga doir har bir chiqishlarida ham ona tilimiz nufuzini oshirish, milliy qadriyatlarni saqlash, ajdodlar merosini qadrlash, ularning tafakkur mahsulidan unumli foydalanish, kitobxonlik madaniyatini oshirishga alohida e'tibor qaratish ta'kidlanadi.

METODOLOGIYA


Uzluksiz ta'lim tizimida faoliyat samaradorligini oshirish, ta'lim mazmuni va shaklini sifat jihatdan yuqori pog'onalarga ko'tarish maqsadida yangi texnologiyalar, zamonaviy metodlar va topshiriqlardan foydalanish, shubhasiz, ta'lim sifati va samaradorligiga ijobiy ta'sir o'tkazadi. Ayniqsa, hozirgi o'zbek adabiy tilini o'rganish jarayonida beriladigan topshiriqlar ta'lim oluvchilarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq vaziyatiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirishi va rivojlantirishga qaratilishi lozim. Masalan, "Sifat" mavzusini o'tishda quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin.

1-topshiriq. Sifatning o'ziga xos ma'naviy turlarini quyida berilgan chizmadan foydalangan holda yozib chiqing. (1-rasmga qarang).



1-rasm.

2-topshiriq. Quyida berilgan chizma orqali asliy hamda nisbiy sifatlarga kiruvchi so'zlardan daftaringizga yozing (2-rasmga qarang). Nega ular aynan asliy va nisbiy sifatlarga deya nomlanadi? Fikringizni misollar orqali tushuntirib berishga harakat qiling.




2-rasm.

3-topshiriq. Quyida berilgan sifati darajalari haqidagi ma'lumotlarni ko'rib chiqib, daftaringizga qayd etib qo'ying (3-rasmga qarang).



3-rasm.


4-topshiriq. "Iyerarxiya diagrammasi" grafik organayzerida ko'rsatib o'tilgan sifatlarning mavjud to'rtta darajalariga misollarni keltiring (4-rasmga qarang).




4-rasm.

Shuningdek, boshqa so'z turkumlarini o'rganish jarayonida quyidagi topshiriqlardan foydalanish ham yaxshi samara beradi. Jumladan, ravish so'z turkumini o'rganishda.

1-topshiriq. Quyida berilgan "O'rgimchak to'ri" grafik organayzeri orqali ifodalangan so'zlarni ravish so'z turkumi sifatida olsa bo'ladimi? Shu haqida o'z fikrlaringizni bildiring.



2-topshiriq. “Daraxt” grafik organayzerida berilgan ravish soʻz turkumiga oid boʻlgan soʻzlarning ravishning qaysi maʼno turishiga kirishini toping. Fikringizni misollar yordamida isbotlashga harakat qiling.



Hozirgi oʻzbek adabiy tili mashgʻulotlarida bunday topshiriqlardan foydalanish quyidagilarga imkon beradi:

- bilish ehtiyojini shakllantiradi;
- bilish faoliyatini faollashtiradi;
- fanga boʻlgan qiziqishini oshiradi;
- axborot bilan ishlashni oʻrganishga boʻlgan ishtiyoqni oshiradi;
- individuallik darajasini oshiradi;
- ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi;
- materiallar mazmunining ketma-ketligi oʻquv materiallari doirasini kengaytiradi va oldingi bilimlarini mustahkamlanishiga yordam beradi;
- oʻzini-oʻzi nazorat qilishi, yaʼni baholash jarayonining omillarini kengaytiradi va h.k.

Bilamizki, "Olmosh" ham o'ziga xos so'z turkumi hisoblanadi. Predmet yoki uning biror belgisiga nom bo'lmay, predmet yoki belgi tushunchasining mavjudligini ko'rsatadigan mustaqil so'zlar turkumi olmosh deyiladi. Olmoshlar nutqda ot, sifat, son o'rnida keladi va gapda ularga xos vazifani bajaradi. Ushbu mavzuni mustahkamlashda, takrorlashda yana topshiriqlardan foydalanish yaxshi samara beradi.

1-topshiriq. "Pillapoya". Quyida ko'rsatib o'tilgan savollarga javob bering



2-topshiriq. Quyida "Doira" orqali ifodalangan olmoshlarning ma'noviy turlariga kiruvchi misollarni keltiring.



3-topshiriq. "Mening oilam" mavzusida esse yozing. Yozayotgan ijodiy ishingizda, albatta, olmoshlardan unumli foydalanishga harakat qiling.

XULOSA

Yuqoridagi kabi topshiriqlardan foydalanish ta'lim oluvchilarda tezkorlik, zukkolik, mustaqil fikrlash hamda lingvistik kompetensiya elementlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, har bir usul yoki topshiriq muhim va zurur narsa. Lekin undan o'z o'rnida va maqsadli foydalangandagina o'z samarasini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduazizov A.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent, 2010.
2. Abdurasulova va b. Morfologiya. – Namangan, 2024.
3. Jamolxonov.H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2005.
4. Muhiddinova X. Xudayberganova D. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2006.
5. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R va b. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent, 2019.